

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida.....	423



УО'К: 37.014.5:316.42

**TA'LIM VA INSONPARVARLIKKA ASOSLANGAN "TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINING MANBAI SIFATIDA**

**«СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ» НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧНОСТИ КАК
ИСТОЧНИК УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА**

**"DEVELOPMENT STRATEGY" BASED ON EDUCATION AND HUMANITY AS A
SOURCE OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY**

Namozova Yulduz Muzafarovna 
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylash, "Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan hamda jamitdag'i ziddiyatlari insonning ichki tabiatida ham mavjud ekanligini ko'rsatib, axloqiy qadriyatlar bu ziddiyatlarni bir-biri bilan kelishtira olmasligi tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье представлены предложения и рекомендации по сохранению национальных ценностей и духовного наследия, реализации концепции «Новый Узбекистан – просвещенное общество», а также показано, что конфликты в обществе существуют во внутренней природе Человек, и моральные ценности объединяют эти конфликты, анализируется, что они не могут согласовываться друг с другом.

Abstract

This article presents proposals and recommendations for the preservation of national values and spiritual heritage, the implementation of the concept of "New Uzbekistan - an enlightened society", and shows that the contradictions in society also exist in the inner nature of man, and analyzes the inability of moral values to reconcile these contradictions.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'rifatli jamiyat, ezhgulik, insonparvarlik, ma'naviy taraqqiyot, strategiya, qadriyat, ma'rifat, ma'naviy meros.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, просвещенное общество, добро, человечность, духовное развитие, стратегия, ценности, просвещение, духовное наследие.

Key words: New Uzbekistan, enlightened society, goodness, humanity, spiritual development, strategy, values, enlightenment, spiritual heritage.

KIRISH

Har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch inson ekanligi, uning barcha huquq va imkoniyatlari davlat tomonidan kafolotlanganligi bilan o'lchanadi. Jumladan, O'zbekistonda insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotnligi aholi farovonligi uchun zamin yaratilishiga ishoradir.

Bugungi kunda mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda ilm-fan va ilmiy tadqiqotlar muhim omil ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Shu bois, mavjud imkoniyatlarni yo'qotmaslik, o'zbek akademik ilm-fani va oliy ta'limidagi barcha yaxshi jihatlarni asrab qolish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlashda sifatni ko'tarish eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi.

Ilm-fan - har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o'rinni, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois O'zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Konstitutsiyamizda davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi bejiz qayd etilmagan.

Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha erishilgan yutuqlarga qaramay, hali hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish davrida aynan innovatsion yondashuv mamlakat

muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Bunday yondashuvni faqat ilm-fan yutuqlari tufayli qo'llash mumkin, shuning uchun ilm-fan taraqqiyoti davlatning innovatsion rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir.

Barqarorlik - bu kelajakdagи ehtiyojlarni xavf ostiga qo'ymasdan, hozirgi ehtiyojlarni qondirish uchun resurslarni boshqarishdir. Bunda boshqaruв doirasida ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi hisobga olinadi. Birinchidan, barqarorlik tabiat va atrof-muhit tunganmas resurslar emasligini nazarda tutadi. Ikkinchidan, barqaror rivojlanish ijtimoiy rivojlanishga ko'maklashish va jamiyat va madaniyat uyg'unligini izlashdir. Shunday qilib, u hayot, sog'liq va ta'lif sifatining qoniqarli darajasiga erishishga intiladi. Uchinchidan, barqarorlik iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan hamma uchun teng boylik yaratadi. Barqarorlik, (ijtimoiy, ma'naviy) - jamiyatdagi tinch-totuvlik, birdamlik va ularni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtaсидagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtaсидagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishidir.

G'arb olimlaridan R.Darendrof va A.Kozerlar haqiqiy barqarorlik yo'q har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri, degan fikrni ilgari surganlar. Ushbu fikrga zid tarzda T.Parsons "ijtimoiy tizimning barqarorlikdagi qoidalari"ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, har qanday barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir. Bunda davlatning vazifasi jamiyatning eng kichik bo'g'inlari, jamoalar, tashkilotlar, idoralar orasidagi mutanosiblikni saqlash va mustahkamlashdan iborat. Agar davlat buning uddasidan chiga olsa, u jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruvchi (regulyator) vazifasini ado etadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning muayyan islohotlarni amalga oshirishi uchun imkon yaratadi. Bu qarashlar ko'pgina mutaxassislar tomonidan e'tirof qilingan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikka erishish va uni mustahkamlashga katta e'tibor berilmoqda.

Barqarorlik jamiyat taraqqiyotining, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning asosiy sharti, ma'naviy tamoyillar amaliyotini ta'minlash omilidir. So'ngi yillarda O'zbekistonning tashqi siyosiy hayotida tub o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, davlatimizni qo'shni davlatlar hamda xorij mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlayotgani hamda izchil hamkorlik asosida ko'plab ijobjiy natijalarga erishilayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Ayni chog'da xalqaro moliyaviy institutlar bilan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatimizning turli sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalg etish va bu orqali islohotlarimizni jadal rivojlantirishga erishilmoqda. Ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilinib, yurtimizda inson manfaatlarini ta'minlash, uning haq-huquqlarini himoya qilish va aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish choralar ko'rilyapti. Buni BMT bilan munosabatlarimiz yangi bosqichga ko'tarilgani misolda ham ko'rish mumkin. Zero, mazkur tuzilma bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish yangilanayotgan O'zbekiston milliy manfaatlariga har tomonlama uyg'undir. Mamlakatimizda BMT Bosh Assambleyasi hamda tuzilmalari tomonidan qabul qilingan rezolyutsiya, konvensiya, deklaratsiyalar asosida samarali ishlar olib borilmoqda.

Faylasuf L.G.Melnik fikricha, barqarorlik atamasi muvozanatni nazarda tutadi va "rivojlanish" faqat tizim doimo muvozanatdan chiqib ketgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Jamiyat barqarorligi bu ehtiyojlarni nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham qondirish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jihatlarini taqdid qilishda namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi barqarorlik atamasi odatda milliy iqtisodiyot rivoji bilan bog'liq jarayonni anglatadi. Faylasuf N.N.Moiseyevning fikricha, barqarorlik g'oyasining ma'nosи "inson va biosferaning birgalikdagi evolyutsiyasi" atamasi bilan ifodalangan bo'lib, u V.I.Vernadskiyning "Noosfera"si bilan deyarli sinonimdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda jamiyat "barqarorligi" jamiyatdagi barcha sohalar bilan "qo'shma rivojlanish" jarayonlarida ko'rindi.

Jamiyatda millat qolaversa, har bir shaxs manfaatlari kamsitsilsa, u qalban nafratlanadi. Uning milliy qadr-qimmati, obro'-e'tibori, or-nomusi toptalgan taqdirda ichki nafrat o'z-o'zini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan amali harakatga, murosasiz kurashga ham aylanib ketadi. Demak, xalqlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlari, ayniqsa ma'naviy qadriyatlarining kamsitilishiga ma'lum vaqt chidab kelishi mumkin, ammo unga cheksiz bardosh bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan,

ILMIY AXBOROT

faylasuf Yevgeniy Rashkovskiyning “sabrsizlik xalqning hali g’o’rejligi, qoloqligi bilan bog’liq” degan fikriga to’la qo’shilish mumkin emas. Chorizm va sovet kolonial tuzumi davrida O’zbekistonning boyliklari talandi, mahalliy xalqlarning haq-huquqlari kamsitildi. Milliy madaniy va tarixiy meros, an’ana va qadriyatlar oyoq osti qilinishi, tarixning oshkora soxtalashtirilishi tabiiyki, milliy-ozodlik kurashining jonlanishiga bevosita va chuqur ta’sir etgan omillardan bo’ldi. Ochlik va qashshoqlikka chidagan odam siyosat va ma’naviyat borasidagiadolatsizliklarga bardosh bera olmaydi. Shu boisdan, ma’lum bir tarixiy bosqichlarga kelib, xalq orasida kuchaygan hissiyot va ehtiroslar, o’z navbatida, milliy g’oyaga kuchli ta’sir etadi. Bu, ayniqsa, muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar milliy g’oyadan o’z manfaatlari yo’llida foydalanishda, o’zlarini esa millat idealining mutlaq ifodachisi deb ko’rsatishga intilishda yaqqol ko’zga tashlanadi. Ma’rifatlilik umuminsoniylikka yo’g’rilgan milliy manfaatlarni himoya qilishdan uzoq bo’lgan reaksiyon kuchlar ham o’zlarining tor siyosiy manfaat va maqsadlarini milliy g’oya sifatida kun tartibiga qo’yishi va shu yo’l bilan xalqning milliy ongi hamda ruhiyatiga ta’sir etishga harakat qilishi mumkin. Millat uchun bunday vaziyat, odatda, juda alg’ovli kechib, ko’plab salbiy o’zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda millatlararo dinlararo tolerantlik muhimdir. Bu O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo’yilgan. Konstitutsiyasining 35-moddasida ta’kidlanganidek, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqot qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’ymaydi”.

Bugungi kunda O’zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, bag’rikenglik g’oyasini shakllantirishda tarbiyaning qator shakl, usub va vositalari qo’lanilmoqda. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirishda huquqiy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy indikatorlari va vazifalari qatorida umumqamrovli va sifatli ta’limni ta’minlash hamda barchaga butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini rag’batlantirish maqsadi bo'yicha 2030-yilgacha o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida xalqaro hamkorlik qilish orqali o'qituvchilar sonini jiddiy ravishda ko'paytirish mo'ljallangan.

O’zbekistonda “Jamiyat-islohotlar tashabbuskor” ezgu g’oyasi bosqichma-bosqich amaliyotda o’z ifodasini topmoqda. Zero, har bir davrning o’ziga xos siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy ehtiyojlari va unga erishish yo’llari, munosabatlari, tafakkur tarzi bor. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki so’ngi yillarda O’zbekistonning tarixiy taraqqiyot va rivojlanishida yangi bosqich boshlandi.

Yangilanayotgan O’zbekistonning 2017-2021-yillarga mo’ljallangan “Harakatlar strategiyasi” doirasida qabul qilingan 90 ta qonun, 2000 ta qaror inson taraqqiyotini ta’minlashga yo’nalgan. Bu esa, mamlakat siyosiy rahbarining vatanparvarligi, insonparvarligi va eng muhimi yuksak mas’uliyatining ifodasidir. Xususan, unda belgilangan vazifalar ijrosi sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish, pensionerlar, nogiron, yolg’iz keksalarni ijtimoiy himoya qilish, uy joyga ehtiyojli fuqarolarga imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari ajratish, shahar va qishloq xududi infratuzilmasini takomillashtirishda o’z ifodasini topmoqda. Bu kabi islohotlar inson taraqqiyoti konsepsiyasining O’zbekiston modelining ifodasidir. Biroq, inson taraqqiyotiga oid qarorlar e’lon qilinsa-da, davlat rahbari sa’y-harakatlari bilan ularning ijrosi ta’minlansa-da, inson dunyoqarashi o’zgarmas, odamlarda siyosiy hushyorlik shakllanmas ekan, bu qaror ahamiyatsiz bo’lishi mumkin. Shu bois, eng katta mas’uliyat fuqarolarning o’z-o’zini tarbiyasiga bog’liq.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “O’zbekiston 2030-yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalgalashirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori inson taraqqiyotiga yangicha ruh berdi. Qarorni ijrosi o’laroq respublikamizda barcha sohalarga informasion texnologiyalarning joriy qilinishi ilmiy texnik taraqqiyotning inqilobiy rivojlanishiga va inson bunyodkorlik salohiyatining mislsiz o’sishiga olib keldi. Bu jarayon raqamli iqtisodiy texnologiyalarni kundalik faoliyatimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganligida namoyon bo’lmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu innovation texnologiyalar, platformalar va yangi biznes modellarini yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko’chirish demakdir.

Bugun O'zbekistonning taraqqiyot rivoji "Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari" ezgu g'oya asosida rivojlanayotganligi dunyo mamlakatlari nigohida Yangi O'zbekiston deb nomlangan yangicha termin bilan e'tirof etmoqda. Bundan tashqari mamlakat istiqbolini yanada mustahkamlash va aholigaadolatli hayot sharoitlarini yaratib berish maqsadida 2022-yil 28-yanvarda "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 60- sonli farmon qabul qilinishi inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganligiga ishoradi. Jumladan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining ettinchi yo'naliish 71-maqsadi Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib qilish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bonyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishga bag'ishlangan. Bu esa, yangi davrning va ustuvor xususiyatlari, avvalo, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o'z faoliyatini "Inson-jamiyat-davlat" va "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyillar asosida olib borishida aks etadi.

Mamlakat hayotining barcha sohalarini isloh qilish va demokratlashtirish jarayoni bir martalik vazifa emas, balki uzlusiz davom etadigan jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi inson barqaror taraqqiyotini amalga oshirish, mamlakatning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada "milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari", "Yoshlar kelajagimiz", "Besh ijobji tashabbus" kabi dasturlarimiz aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida mamlakatning ma'nnaviy qiyofasi tubdan yangilanmoqda. Milliy ma'nnaviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalari, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda. Bularning barchasi biz uchun ogohlilik qo'ng'irotg'i bo'lib yangrashi zarus.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari" ezgu g'oyasini aholi va keng jamoatchilikka targ'ib qilish, uning chuqur o'rganish, falsafiy mohiyatini tushunish, ijtimoiy jarayonlarga insonlarni to'g'ri baho berish kompetentligini rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik, umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinismning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy g'oyaning amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, holisona hal qilinmoqda. Millatlar o'tasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishini, mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an'analarini, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaathomasi. <http://uza.uz>
- Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi". T.: "O'zbekiston". 2021-y, 9 b.
- Mirziyoyev Sh. "Insonparvarlik, ezgulik va bonyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir". T.: "Tasvir nashriyoti". 2021-yil, 9 bet.
- Namozova, Y. (2019). СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ ГЕНЕЗИС ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ, СФОРМУЛИРОВАННОЙ В ТУРКЕСТАНЕ. Theoretical & Applied Science, (10), 370-374.
- Namozova, N. Y. (2021). GERMAN AND ENGLISH IN THE ACADEMIC FIELD OF THE GERMAN-SPEAKING REGION. Theoretical & Applied Science, (8), 318-321.
- Kakhramonova, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(3), 84-102.
- Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
- Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.

ILMIY AXBOROT

9. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliv qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
10. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 126.
11. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
12. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 307-311.
13. Oydin Abdullayeva. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati. Barqaror rivojlanish maqsadlari: 2030 yilgacha ta'lif olish sifati yanada yuksaladi. 2020.
14. Nabiyeva, S. M., & Nabiiev, B. M. Stanovleniye i razvitiye politiko-pravovoy ideologii. Science and Education, 2022. 3(5).